



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

OLIV TA'LIMDA "INGLIZ TILINI O'QITMASDAN O'QITISH" USULINI QO'LLASH ORQALI TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Hasanova Shaxrinoz G'olibjonovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili 3-fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: hasanovashahrinoz1106@gmail.com

Ilmiy rahbar: Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasida katta o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176318>

Annotatsiya: Ushbu maqola Roberto Guzman muallifligidagi "Ingliz tilini o'qitmasdan o'qitish" metodini qo'llash orqali talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Ingliz tilini o'qitishning noan'anaviy shakli sifatida bu metod talabalarni global muammolarni tahlil qilish, guruh muhokamalarida qatnashish va fikrlarini erkin ifodalashga undaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv talabalarni ularning ingliz tili fani bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliy qo'llashga, mantiqiy yondashishga va yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlarni bajarishga yo'naltiradi. Maqolada ushbu metodning afzalliklari, amalga oshirish bosqichlari va natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitmasdan o'qitish, tanqidiy fikrlash, innovatsion metodlar, muloqot va tahlil, interaktiv metodlar, oliy ta'lim.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni o'rgatish, balki ularning amaliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. An'anaviy ta'lim metodlari odatda grammatik qoidalar va so'z boyligi asosida quriladi, biroq bunday yondashuv bo'lajak kasb egalarining real hayotiy vaziyatlarni tahlil qila olish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mukammal tarzda shakllantira olmaydi. Roberto Guzman tomonidan ishlab chiqilgan "Ingliz tilni o'qitmasdan o'qitish" metodi talabalarning ushbu sohalar bo'yicha yuqori saviyaga ega bo'lishlariga, ularning mustaqil fikrlash va amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim tizimida ushbu metoddan keng foydalanish talabalarning ko'plab yutuqlarga erishishlarida yordam beradi.

"Ingliz tilini o'qitmasdan o'qitish" usulining mohiyati



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ushbu metodning asosiy maqsadi talabalarga ingliz tilini o'rgatishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan faoliyatlarni tashkil etishdir. Bu jarayon uch bosqishda amalga oshiriladi:

1. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish: talabalarni savollar berishga undash orqali fikrlash jarayonini rag'batlantirish. Ular dars davomida o'qituvchiga "Nega?", "Nima uchun?" kabi savollar berish orqali o'z fikrlash doiralarini kengaytiradilar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga harakat qiladilar. Dastlabgi bosqichlarda talabalardan oddiy va o'zlarini qiziqtirgan savollarni taqdim etish so'raladi, keyinchalik esa ularni murakkabroq mavzular yuzasidan chuqur savollar berishga o'rgatish tavsiya etiladi. Bu orqali ular passiv o'rganuvchidan aktiv izlanuvchiga aylanadilar. Shuningdek, ular ushbu ko'nikmalari orqali kelajakda o'z sohalarining erkin izlanuvchisi va chuqur tahlil qila oluvchi kadrlar bo'lib yetishadilar.

2. Mantiqiy xatoliklarni aniqlash va tuzatish: bu bosqich talabalarga tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Talabalar ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy asoslarini tekshiradilar va noto'g'ri fikrlarni aniqlashni o'rganadilar. Ma'lumotlarning mantiqiy jihatdan to'g'riligini tahlil qilishda quyidagi savollarga javob topish tavsiya etiladi:

- Keltirilgan sabab va dalillar qanchalik ishonchli va asosli?
- Keltirilgan fikrni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi dalillar mavjudmi?
- Keltirilgan fikrda umumlashtirish yoki noto'g'ri xulosalar yo'qmi?

3. Bu bosqich talabalarning bilim va aqliy qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv sodda aqliy jarayonlar (masalan, esda saqlash) bilan bir qatorda murakkab tahlil va baholash kabi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Quyida ushbu bosqichning tarkibiy qismlari keltirilgan:

•Esa saqlash: talabalar asosiy ma'lumotlarni va tushunchalarini eslab qolishga harakat qiladilar. Bunga, asosan, lug'at yodlash, grammatik qoidalar va faktlarni esda saqlash kiradi.

•Tushunish: talabalar o'zlashtirgan bilimlarini chuqur tushunishga va ularni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qiladilar. Masalan, matn mazmunini tahlil qilish yoki asosiy g'oyani aniqlash.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

•Amaliyotda qo'llash: talabalar o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga harakat qiladilar. Ular interaktiv o'yinlar, muhokamalar va loyiha ishlari orqali o'z bilim va malakalarini namoyon qiladilar.

•Tahlil: bu jarayonda talabalar murakkab matnlarni tahlil qilib, undagi asosiy g'oyalarni va sabab-natija munosabatlarini aniqlaydilar.

•Sintez: talabalar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirib, yangi g'oyalar va xulosalar yaratadilar. Masalan, turli xil matnlarni tahlil qilish va farqli jihatlarni taqqoslash orqali umumiy xulosaga kelish.

•Baholash: baholash ma'lumotlar va g'oyalarni tahlil qilishda tanqidiy yondashish orqali asosli xulosa berish va to'g'ri qaror qabul qilishdir.

“Ingliz tilini o'qitmasdan o'qitish” metodining afzalliklari

1. Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Bu metod orqali talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradilar. Ular o'zlari o'rgangan ma'lumtlarni turli savollar berib shubha ostiga olish orqali chuqur tahlil qiladilar va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ushbu ko'nikma ularga nafaqat fan doirasidagi, balki fan doirasidan tashqaridagi bilimlarni o'zlashtirishga imkon yaratadi. Natijada ular ish jarayonlari va ilmiy izlanishlarda mustaqil qaror qabul qila oladilar.

2. Muloqot va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish

Ayrim grammatik bilimlarni puxta o'zlashtirgan va test yoki yozma sinovlarda yuqori natijalarga erishgan talabalar og'zaki muloqot jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Guzmanning metodi aynan shu muammoni hal qilishda muhim ahamiyatga ega:

•Talabalar interaktiv mashg'ulotlar va jamoaviy bahs-munozaralarda turli muammolarni hal qilish orqali faol muloqotda bo'ladilar.

•Turli savollarga javob berish orqali ular o'z fikrlarini erkin va aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

•Maqolalar, matnlar yoki podkastlarni tahlil qilish orqali nutq boyliklarini oshiradilar va muloqotda erkinlikka erishadilar.

3. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish

Bu metod talabalarning zamonaviy mehnat bozorida o'zlashtirishlari zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi:

•Muammolarni hal qilish: talabalar muammoli vaziyatlarda eng to'g'ri va samarali yechimlarni izlashni o'rganadilar.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

•Jamo'a bilan ishlash: loyiha ishlari va guruhli bahs-munozaralar orqali talabalar jamoa bilan ishlash va kelishuvga erishish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

•Texnologiyadan samarali foydalanish: talabalar hujjatli filmlar, podkastlar, videolar va boshqa texnologik resurslardan foydalanish orqali zamonaviy qulayliklarni ta'lim olish jarayoni bilan uyg'unlashtiradilar.

“Ingliz tilini o‘qitmasdan o‘qitish” metodining natijalari

Guzmanning so‘zlariga ko‘ra, talabalar grammatik qoidalarni yaxshi bilishlariga qaramay, ular erkin muloqot qilisha olmagan yoki qiyinchiliklarga duch kelishgan. Guzman an’anaviy til o‘qitish metodlaridan norozi ekanligini ta’kidlagan, chunki talabalar yozma imtihonlardan yuqori natijalarni qo‘lga kiritsalar-da, suhbat jarayonida o‘z fikrlarini erkin bayon qila olmaganlar. Biroq o‘qituvchi darslar davomida ushbu metoddan foydalangach esa, talabalar:

•Yozma hamda og‘zaki ko‘nikmalarni bir maromda rivojlantirishga erishdilar.

•Savol berish yoki javob qaytarish orqali suhbat va muloqotda faol ishtirok eta boshladilar.

•Nutqni hayotiy vaziyatlarga moslashtirgan holda erkin rivojlantirishda muvaffaqiyat qozondilar.

Mantiqiy tahlil va xulosalar chiqarishdagi yutuqlar

Talabalar ta'lim olish jarayonida har bir fikr-mulohazalarni tahlil qilishga, ularni mantiqan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirishga va keltirilgan dalillarning asosli yoki asossiz ekanligiga ishonch hosil qilishga odatlandilar. Guzman o‘z tajribasi davomida talabalarda o‘z fikrlarini asosli dalillar bilan himoya qila olish va to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi o‘zgarishlar kuzatilganini ta’kidlaydi.

Tahlil va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ingliz tilini o‘qitmasdan o‘qitish” metodi hozirgi davr ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish va talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish, erkin muloqot va tahlil qilish ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham ushbu metodni qo‘llash dolzarb mavzuga aylanishi mumkin. Chunki mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab bilan bir qatorda o‘rganuvchilar soni ham oshib borayotgan ekan, talabalarga faqatgina grammatik bilimlar berish bilan cheklanibgina qolmay, ularda amaliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Hozirda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham yoshlarni mustaqil fikrlashga undash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Guzman metodi orqali tahsil olgan talabalar o'zlarida savol berish, tanqidiy fikrlash, musta'qil izlanish va to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirdilar. Uning tajribasida erishilgan natijalar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham kuzatilishi ehtimoli yuqori. Zero, bu metod orqali egallangan ko'nikmalar talabalarga nafaqat ta'lim olish jarayonida, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatlarida ham muvaffaqiyatga erishishlarida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guzman, R. (2016, May 26). Teaching English without teaching English [Video]. TEDx Talks. YouTube. https://youtu.be/8pZa6R3rmRQ?si=t_nm_6pkRoqt6K2w
2. Silvia, Ch. , Leonard, O. (n.d.). *Teaching english without teaching english*. Rizzoli Education. <https://www.rizzolieducation.it/news/teaching-english-without-teaching-english/>
3. My English Pages. (2016, May 26). *Teaching english without teaching english*. <https://www.myenglishpages.com/teaching-english-without-teaching-english/>